
#SEMINAR



Qo'shtepa tumani hokimligining majlislar zalida xotin-qizlar muammolarini tizimli ravishda xal etish, ularni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha respublika komissiyasining kengaytirilgan yig'ilishi bayoni topshiriqlari ijrosini ta'minlash hamda "Ayollar daftari" tizimining 3-bosqichini shakillantirish va uni yuritish bo'yicha o'quv seminar o'tkazildi.

Seminarda mahalla fuqarolar yig'ini raislarining oila, xotin-qizlar va ijtimoiy ma'naviy masalalar bo'yicha o'rinbosarlari, mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash bo'limining mas'ul xodimlari qatnashdilar.

Soha mutaxassislariga "Ayollar daftari" tizimining 3-bosqichini shakillantirish mexanizmlari, tartiblari va yo'nalishlari batafsil tushuntirildi.



Seminarda tuman hokimining o'rinbosari, mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash bo'limining boshlig'i Z.Komilov hamda tuman hokimining xotin-qizlar masalalari bo'yicha maslahatchisi M.Mo'ydinovalar ishtirok etishdi.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#),

2022-01-06 08:34:38